



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNI AQLIY RIVOJLANISHIDA MAQOLLARNING O`RNI

Turakulova Feruza Aminovna

Qo`qo davlat universiteti

Pedagogika kafedrası v.b.dotsenti

Annotatsiya: maqolada maqollarning xalq pedagogikasidagi o`rni, ularning tarbiyaviy va ijtimoiy ahamiyati, shuningdek, til va tafakkur rivojiga ta`siri ilmiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Maqollar orqali axloqiy, madaniy va ijtimoiy qadriyatlarining shakllanishi va avloddan-avlodga uzatilishi o`rganiladi.

Kalit so`zlar: maqol, dono fikr, xalq pedagogikasi, tarbiyaviy ahamiyat, axloqiy qadriyatlar, ijtimoiy tarbiya, og`zaki ijod.

Аннотация: статья посвящена роли пословиц в народной педагогике, их воспитательному и социальному значению, влиянию на развитие речи и мышления.

Ключевые слова: пословица, мудрая мысль, народная педагогика, воспитательное значение, нравственные ценности, социальное воспитание, устное творчество.

Abstract: the article examines the role of proverbs in folk pedagogy, their educational and social significance, and their influence on the development of speech and thinking.

Key words: proverb, wise thought, folk pedagogy, educational significance, moral values, socialization, oral creativity

Maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy rivojlanishi ularni maqsadga muvofiq tashkil etiladigan aqliy tarbiya bilan belgilanadi. Aqliy tarbiya — shaxsning har tomonlama taraqqiyoti, uni turmush va mehnatga tayyorlashning muhim tarkibiy qismi. Aqliy tarbiya bilimlarni to`plash, biror narsani tahlil va sintez qilish, narsa va hodisalarni taqqoslash hamda tasniflash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, ularni bir tizimga solishni nazarda tutadi. Aqliy tarbiya vazifasi intellektual ko`nikmalar, ya`ni har qanday fanni o`rganishda qo`llaniladigan umumiy o`quv ko`nikmalari — o`qish, tinglash, o`z fikrini og`zaki bayon etish, yozish, manba bilan ishlash, mustaqil ishlash malakalarini, shuningdek biror fanni egallash bo`yicha zarur bo`lgan maxsus ko`nikmalar, ya`ni chizma, xaritalarni o`qiy bilish, ularning natijalarini chiqara olishni egallashdan iborat. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, ya`ni bolalarga olam ilmiy manzarasi, tabiat va jamiyat taraqqiyotining asosiy qonunlarini tushuntirish ham Aqliy tarbiyaning muhim vazifasidan biridir. Maktabgacha ta`lim tashkilotlarida bolalarni aqliy tarbiyasining muhim vazifalarini hal etishda maqollar alohida ahamiyat kasb etadi. Maqollar – xalq og`zaki ijod shakli bo`lib, har bir xalqning milliy tafakkuri, axloqiy qadriyatlari va hayotiy tajribasi ixcham, aniq va yodda qoladigan shaklda ifodalanadi. Maqollar ko`p

asrlik tarixiy tajriba va ijtimoiy normalarni o‘zida mujassamlashtirib, avlodan-avlodga o‘tib, bugungi kunda ham o‘z ahamiyatiga ega bo‘lgan tarbiya vositasidir. Xalq turmush tajribasida bolaga murakkab hayotiy holatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish va aqlan baholashni o‘rgatishda maqollardan tarbiya vositasi sifatida foydalanish ham otanalarga, ham pedagoglarga qo‘l keladi. Maqollarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyati bir nechta quyidagi jihatlari orqali ifodalanadi:

- Maqollar ixcham, sodda va yodda qoladigan shakllarda aks etishi, bu maqollarning ta’limiy va tarbiyaviy ahamiyatining birinchi jihati bo‘lib, inson odobi ham aql bilan boshqarilishi, insonda aql bo‘lmasa unda axloq ham bo‘lmasligi, xuddi hayvonlar kabi kun kechirishi mumkinligi aks ettirilgan:

- Adashgan aqldan ozar

- Ayron osh bo'lmas,

Nodon — bosh

- Achchig‘ing chiqsa ham, aqling qochmasin.

- Aql aynimas, oltin chirimas.

- Aql aqldan quvvat olar.

- Aql bilan odob egizak.

- Aql bozorda sotilmas. Bu maqollar orqali bolalar hayotining dastlabki yilidayoq atrofni o‘rab turgan barcha narsalar ayron, osh, oltin, bozor bilan tanishtirib borish muhim ahamiyatga ega. Pedagogik tadqiqotlarda bolalar aqliy tarbiyani ta’lim, o‘yin, mehnat jarayonida, hayotiy vaziyatlarni hal etish, kattalar va tengdoshlar bilan bo‘lgan muloqotda, ommaviy axborot vositalari orqali olinishi va o‘zlashtirilishi isbotlangan.

Maqollarning ikkinchi muhim jihataridan biri bolalarni jamiyatga moslashishini o‘rgatadi. Ijtimoiy qadriyatlar bolalarda empatiya, jamoaviy ishlash va mas’uliyat hissini rivojlantiradi. Bu rivojlanish bola miyasidagi analz-sintez oraqli tushunish, idrok etish orqali aql bilan boshqariladi:

- Aql — boshda,

G'ayrat — yoshda,

Asl — toshda.

- Aql boshdan chiqadi,

Asl — toshdan.

- Aql boshlaydi,

Oyoq tashlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda o‘ziga xos xususiyatlarni shakllantirib, rivojlantirib borish anotamik, fiziologik va psixologik jihatlarga bog‘liq. Bunda ularga muhit va tashqi omillar katta ta’sir o‘tklishi nazarda tutiladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy rivojlanish davrida, ularni turli faoliyatlarga jalb etilish maqsadga muvofiqdir. Bu jarayonlarda maktabgacha yoshdagi bolalar o‘z tengdoshlari va kattalar bilan muloqotga kirishadi. Muloqot jarayoni esa maktabgacha yoshdagi bolalarda muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Maqollarning til va nutq madaniyatini rivojlantirishdagi muhim vosita ekanligi uchunchi jihatni aks ettiradi. Maqollar bolalarda lingvistik tafakkur, so‘z boyligi, maqol va aforizmlarni tushunish, shuningdek, obrazli fikrlashni rivojlantiradi. Shu jihatdan, maqollar bolalarning kognitiv rivojlanishida ham ahamiyatli vosita hisoblanadi:

- Aytar so'zni ayt,
Aytmas so'zdan qayt.
- Aytilgan so'z — otilgan o'q.
- Anjom — uy ziynati,
So'z — inson ziynati.
- Ariqni suv bezar,

Odamni — so'z. Demak, muloqat munosabatlarini o'rnatish va qo'llab-quvvatlash maktabgacha yoshdagi bolalarning his-tuyg'ularni ifodalash, ma'lumot almashish va boshqalarga ta'sir qilish uchun imkoniyat beradi.

Psixologik nuqtai nazardan yondashilganda muloqot maktabgacha yoshdagi bolalarning terapiya, maslahat va shaxslararo dinamikani o'rganishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Muloqotning psixologik jihatlarini tushunishda, nizolarni hal qilishni yaxshilashda, empatiyani kuchaytirishda va ruhiy farovonlikni yaxshilashda maqollarning to'rtinchi jixatidan foydalanish ijobiy samara beradi. Bundan tashqari, maqollar bolalarda hissiy intellekt va stressga chidamlilikni rivojlantiradi. Masalan,

- Sabr qilgan murodiga yetar
Sabrsiz uyatga qolar

- Chidamli bo'lsang, olam seniki.

- Achiq-achchiqning shirin sabri bor kabi maqollar bolalarga muammoli vaziyatlarda hissiy barqarorlikni saqlashni o'rgatadi. Shu bilan birga, ular aqliy qaror qabul qilish qobiliyatini mustahkamlaydi.

Maqollar ta'limiy va tarbiyaviy vosita sifatida bolaning axloqiy, ijtimoiy, lingvistik va kognitiv rivojlanishiga ta'sir qilishi beshinchi jixatini ifodalaydi. Maqollarni zamonaviy pedagogik jarayonga integratsiyalash orqali milliy qadriyatlar, tarixiy tajriba va ijtimoiy me'yorlar bolalarda mustahkamlanadi, shuningdek, interaktiv va multimediyaga shakllari orqali bolalarni jalb qilish mumkin. Zero, maqollar bolalarni jamiyatga moslashishida strategik ahamiyatga ega:

- [Qorong'u kun mangu bo'lmas](#)
- Qayg'u bitar, shodlik o'tar
- Qayg'u — umr zoli
- Birov o'laman desa,

Birov kulaman deydi - kabi maqollar bolalarga hissiy intellektni rivojlantirish va stressga chidamlilikni o'rgatadi. Demak, maqollar psixopedagogik va tarbiyaviy nuqtai nazardan ham strategik ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, aqliy rivojlanish — bu bolaning atrof-muhitni anglash, tafakkur qilish, xotira, diqqat, nutq va muammolarni yechish kabi intellektual qobiliyatlarining bosqichma-bosqich shakllanishi va takomillashib borish jarayonidir. Bu jarayon sezgi va idrokdan boshlanib, mantiqiy fikrlash hamda bilimlarni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Aqliy rivojlanishning asosiy xususiyatlari mavjud bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- Bolalikdan boshlab umr davomida davom etadigan, soddadan murakkabga o'tadigan o'zgarish, ya'ni bosqichma-bosqich jarayon bo'lib, maqollardan foydalanilganda albatta hisobga olinadi.

- Mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, sabab-oqibat munosabatlarini tushunish va ijodiy yondashuvni o‘z ichiga oladigan tafakkurni shakllanishi bo‘lib, bu xususiyat ham maqollarni o‘rgatish jarayonida hisoga olinadi.

- Diqqat, xotira, nutq, tasavvur va nutqning o‘sishi intellektual qobiliyatlarni rivojlanishiga sabab bo‘luvchi xususiyat bo‘lib, maqollar aynan shu xususiyatlarni rivojlanishida alohida o‘ringa ega.

- Aqliy rivojlanish tarbiya, ta'lim, o‘yinlar va ijtimoiy munosabatlar orqali amalga oshiriladi, albatta ijtimoiy muhit ta'siri kuchli bo‘ladi, maqollardan o‘rinli foydalanish alohida ahamiyat kasb etadi.

- Bolalarni maktabga tayyorlashda maqollardan foydalanish bolalarda bilimlar zaxirasini egallash, aqliy faollikni va mustaqillikni, aqliy malaka va ko‘nikmalarni tarkib toptirish natijasida muvaffaqiyatli o‘qishini kafolatlaydi.

- Davlat tugur, bilim tugamas.

- Ilm — yorug‘lik, jaholat — zulmat.

- Bilim — aql bulog‘i, aql — yashash chirog‘i.

- Ilmli olar, ilmsiz oldirar.

- Oltin yerdan, bilim esa kitoblardan qazib olinadi kabi maqollar bolani o‘qishga, hunar o‘rganishga va dunyoqarashni kengaytirishga chorlaydi.

Maktabgacha yoshida bolalar bilimni tez sur‘atlar bilan boyitib boradi, nutqi shakllanadi, bilish jarayonlari takomillashadi, bola eng oddiy aqliy faoliyat usullarini egallab oladi. Zamonaviy tadqiqotlarning natijasida, maqollarni zamonaviy shaklda axborot texnologiyalari yordamida o‘rgatib boorish bugungi kunning dolzarb vazifasiga aylanib borayapti. Maqollarni raqamli platformalarda interaktiv tarzda taqdim etilishi, multimediya vositalari bilan birlashtirilishi, animatsiya, audio-vizual, audio-kitob shaklida taqdim etish, bolalarning tarbiya, ta'lim, o‘yinlar va ijtimoiy munosabatlar faoliyatida ishlatilishi bolalarning aqliy kamolatga erishish jarayonini tezlashtirmoqda. Natijada bolalarda diqqatni jalb qilish, xotirani mustahkamlash, mantiqiy, ijodiy-kreativ tafakkurni rivojlanishiga yordam berib, bolalarda maqollarni o‘rganishga qiziqishlarini orttirmoqda. Demak, og‘zaki ijod janrlaridan biri bo‘lgan maqollarni zamonaviy texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirilsa, maqolning bola aqliy rivojlanishidagi ta‘limiy-tarbiyaviy samaradorligi darajasi oshadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Folklor va Pedagogika. – Toshkent, 2024

2. Karimov Sh. Xalq pedagogikasi va og‘zaki ijod. – Toshkent, 2025

3. O‘zbek xalq maqollari. -Toshkent, “Sharq”. 2005